

**MAHMUDXO‘JA BEHBUDIYNING JADID MAORIFIDAGI
O‘RNI VA AHAMIYATI**

Raimberdiyeva Gulnora Husan qizi

*O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi Filologiya va tillarni o‘qitish
(arab tili) yo‘nalishi 1-bosqich talabasi*

Ilmiy rahbar: A. To‘xtanazarov

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘rta Osiyoda ma’rifatparvarlik harakatining vujudga kelishi, unga turtki bo‘lgan omillar, jadidchilik harakati namoyandalari, ularning faoliyati to‘g‘risida ma’lumot berildi. Shuningdek, Mahmudxo‘ja Behbudiyning XIX asr xalq maorifiga doir islohiy harakatlari yoritib berildi.

Kalit so‘zlar: ma’rifatparvarlik harakati, Turkiston, Sobiq Sovet Ittifoqi, Ismoil G‘aspirali, jadidchilik harakati, maorif, yangi usul maktabi, ta’lim dasturi, istiqlol.

Tarix sahifalaridan ma’lumki, Vatanimiz bugungi farovon hayot, dorilamon kunlarga yetish uchun son-sanoqsiz ulkan dovonlarni bosib o‘tgan. Xususan, o‘tgan asrimizda qariyb 100 yil mobaynida yurtimizning muqaddas tuprog‘i Osiyoning boshqa 14 davlati qatori Sobiq Sovet Sotsialistik Ittifoqi tasarrufida bo‘lgan. Bu muddat davomida mamlakatimizni to‘laqonli bo‘ysundirish, uni tom ma’nodagi Sovet Sotsialistik Respublikasiga aylantirish maqsadida ham moddiy, ham ma’naviy boyligimizga rahna solindi. Jumladan o‘zbek xalqi milliy o‘zligini tashkil etuvchi urf-odat va qadriyatlarimiz, tilimiz, dinimiz, boringki, milliy madaniyatimizga ko‘plab hujumlar uyushtirildi. Tabiiyki, mazkur ma’naviy tanazzul davrida mustamlakachi hukumat nayranglari, qo‘poruvchilik harakatlariga qarshi kurashishni o‘ziga maqsad qilib olgan millat qahramonlariga ehtiyoj nihoyatda katta edi. Bu ehtiyojni qondirish

asnosalida esa yangi fikrli ma'rifatparvarlar qatlami vujudga keldi. Bu qatlam vakillari faoliyati zamirida jadidchilik harakati shakllandi. Ular millatni ma'nan uyg'otish, ulardagi istiqlolga bo'lgan umid hislariga qayta hayot baxsh etishdek mas'uliyatli vazifani o'z bo'ynida oldilar. Bu davrda jamiyat a'zolari ma'naviy olami shu qadar nochor ahvolga kelib qolgan ediki, o'zbek xalqi vakillari o'zgalarga "qullik"ni oddiy holat tarzida qabul qila boshladi. Harbiy ustunlik rus bosqinchilari qo'lida ekanligini hisobga olgan holda ochiq qurolli kurashdan qaytdilar. Ular milliy ongni saqlab qolish, qadriyatlarimizni qayta tiklash asnosalida xalqni ma'nan "qurollantirish"ga harakat qildilar¹.

Turkistonda ma'rifatparvarlik harakati XIX asrning ikkinchi yarmidan ildiz ota boshladi. Mazkur harakatning ziyoli vakillari jamiyatning ma'rifiy hayotini tubdan isloh qilishga kirishdilar. Dunyoning rivojlangan davlatlarida safarda bo'lib ilmda ular erishgan marralar, bu marralarga eltuvchi yo'llarni o'rgandilar. Ularni Turkistondagi hayotni yangi darajaga ko'tarishda qo'llashga harakat qildilar. Jamiyatdagi mavjud ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilish yo'llarini axtardilar. Turkiy xalqlar orasida keng yoyilgan jadidchilik harakatining tom ma'nodagi asoschisi Ismoil G'aspiralining 1893-yildagi Toshkent, Samarqand va Buxoroga tashrifi bu hududlarda jadidchilik harakati g'oyalari yanada kengroq tarqalishiga zamin yaratdi². Ismoil G'aspiralining o'zi esa qrim-tatar ma'rifatparvarlik harakati rahnamosi bo'lib, u ham diniy, ham dunyoviy bilimlarni chuqr egallagan, turli xalqlarning madaniy hayotini o'rganib chiqqan, jahon taraqqiyoti, unga ta'sir etuvchi omillar bilan yaqindan tanishgan, bir qancha xorijiy tillardan erkin foydalana oluvchi ziyoli edi. Bir necha yillik tajriba va orttirilgan bilimlar asosida Sharq va G'arb dunyosini har tomonlama taqqoslab, turkiy xalqlarni taraqqiyot cho'qqisiga olib chiquvchi yo'llarni izlaydi. U 1884-yili Qrimda birinchi yangi usul maktabini ochdi va o'zi ishlab chiqqan ta'lim dasturi asosida maktab o'quvchilariga ta'lim bera boshladi. Uning 1888-yilda

¹ Nusrat Rahmat. Behbudiy qoldirgan ma'naviy xazina. /Zarnews.uz/ 2020-yil 24-yanvar.

² Ra'no To'raxo'jayeva. Adibi avval, Zarafshon gazetasi. – Toshkent, 2020-yil 27-fevral, 26-son.

Modern education and development

nashr etilgan “Rahbari muallimim yoki muallimlarga yo‘ldosh” asarida jadid maktablarida qo‘llaniluvchi ta’lim tizimi, dars jarayoni va uning tartibi, darsxonalarini dizayni, dam olish kunlari, o‘qitiladigan fanlar majmui, imtihon olish tartibi batafsil bayon etilgan³.

“Jadid” so‘zi arab tilidan olingan bo‘lib, leksik jihatdan “yangi” degan ma’noni anglatadi. Istilohda esa u jamiyat hayotini har tomonlama yaxshilash, uni isloh etish asnosida turli yangi texnika va texnologiyalarni ijtimoiy hayotga tatbiq etishni ifodalagan. Jadidchilik harakati zamirida Turkiston ma’rifatparvarlari xalq maorifiga alohida ahamiyat berishdi. Xususan, ular yosh avlodni nafaqat diniy, balki dunyoviy bilimlardan ham xabardor etish, ulardagagi ilmsizlik balosini daf etishga jon-jahdi bilan harakat qilishdi, bu bilan esa millat farovonligini ta’minlashga umid bog‘ladilar⁴.

Turkiston ma’rifatparvarlik harakati namoyandalarini jamiyatning turli xil ijtimoiy qatlamlariga mansub millat fidoiylari tashkil etgan. Ular orasida hunarmand ham, dehqon, savdogar, mulkdor ham, ulamolar ham bor edi. Ularning ba’zilari jamiyat isloholini moddiy-moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlagan bo‘lsa, ziylilar qatlami bunda ma’naviy ko‘prik vazifasini o‘tadi. 1893-yil Buxoroda ilk jadid maktabi o‘z faoliyatini boshladi. Vaqt o‘tgan sayin bu kabi yangi usul maktablari ko‘lami Turkistonning boshqa hududlarida ham kengayib bordi. Chunonchi, 1898-yilda Qo‘qon shahrida Salohiddin domla ikkinchi jadid maktabini ochdi. 1899-yilda Shamsiddin domla rahnamonligida Andijon shahrida, ayni yilning o‘zida Mannon qori boshchiligidagi esa Toshkentda ham jadid maktablari o‘z faoliyatini boshladi⁵.

O‘rta Osiyoda ma’rifatparvarlik harakatining yoyilishiga, tabiiyki, uning islohiy qudratidan yaxshi xabardor bo‘lgan mustamlakachi hukumat jim qarab turmadi. Bosqinchi amaldorlar, qolaversa, mahalliy mutaassib va johil ulamolar jadidchilik harakatiga tish-tirnoqlari bilan qarshilik ko‘rsatdilar. Lekin bu millat

³ Nusrat Rahmat. Besh yulduzday serqirra inson, Zarafshon gazetasi. –, 2020-yil 6-iyun, 63-son.

⁴ Naim Karimov. Mahmudxo‘ja Behbudiy. – Toshkent, 2010.

⁵ Ra‘no To‘raxo‘jayeva. Adibi avval, Zarafshon gazetasi.¹⁰⁹ Toshkent, 2020-yil 27-fevral, 26-son.

qahramonlarini o‘z maqsadlaridan bir ongina ham chetlashishlariga sabab bo‘la olmadi. Ular Turkistonda jadid maktablari faoliyatini kengaytirish, yosh avlod orasidagi iqtidorlarni aniqlab, ularning chet elda ta’lim olib qaytishlari, xorijiy ilg‘or fan-texnologiyalarini ona diyormizda ham ishga solishni har tomonlama qo‘llab-quvvatladilar, milliy ong va o‘zlikni rivojlantirish maqsadida turli gazeta va jurnallarni ishlab chiqdilar.

Jadid maktablarida amal qilinadigan ta’lim dasturi Yevropa mamlakatlari ta’lim standartlariga asoslangan edi. Unga ko‘ra yangi usul maktabi o‘quvchilari islam dini asoslarini o‘rganish bilan bir qatorda, biologiya, arifmetika, dunyo tarixi, geografiyasi va shu kabi bir qancha fanlardan ham saboq olishgan. O‘tgan asr boshlarigan kelib jadidchilik harakati ko‘lami birmuncha ortdi, ma’rifatparvarlar soni ko‘paydi. Toshkentda Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev, Buxoroda Abdurauf Fitrat, Sadriddin Ayniy, Fayzulla Xo‘jayev, Samarqandda Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulqodir Shakuriy, Farg‘ona vodiysida Hamza Hakimzoda Niyoziy, Obidjon Mahmudov, Abdulhamid Cho‘lpon, Xivada Boboxon Salimov, Polvonniyoz Hoji Yusupov shular jumlasidandir⁶.

O‘rta Osiyo jadidlari otasi sanalmish Mahmudxo‘ja Behbudiy Turkiston milliy uyg‘onish harakatining atoqli namoyandalaridan biri sifatida o‘zbek xalqi ma’naviy xazinasini boyitish, undagi jamiyatga daxldorlik hissini uyg‘otishda katta ahamiyat kasb etgan. U Turkistonda yangi usul maktablari tarmog‘ining kengayishi, milliy gazeta va jurnallarning faoliyatini yo‘lga qo‘yishda jonbozlik ko‘rsatdi. Birinchi o‘zbek dramasi muallifiga aylanib, milliy teatr truppalarining vujudga kelishiga zamin yaratdi. Mahmudxo‘ja Behbudiy xalq va jamiyatni ma’rifatlashtirish orqali istiqlolga erishish g‘oyalarini ilgari surdi va shu qutlug‘ yo‘lda jon taslim qilgan ulug‘ ajdodimizdir. 1899-1900-yillarda Behbudiy buxorolik do‘sti Hoji Baqo bilan haj safariga chiqadi. “1318 sanayi hijriyasi tavofi Baytullog‘a Kavkaz yo‘li ila Istanbul va Misr Al-Qahira vositasila borib edim.

⁶ Behbudiy M. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Akademnashr, 2018, B. 40-42.

Modern education and development

Muddati safari sakkiz oydan ziyoda cho‘zilub edi”, - yozadi Behbudiy bu safar haqida. Bu sayohat, dunyo ko‘rish, kezish izsiz ketmadi. Sayohat Behbudiyning dunyoqarashini, keyingi faoliyatini tubdan o‘zgartirib yubordi. Bu sayohat uning hayot yo‘lida, kelajakda bo‘ladigan hodisalar, yangiliklarni boshlab berdi. Behbudiy Turkiston xalqlari tushmushidagi qoloqlik, abgor ijtimoiy ahvol, “jaholat uyi” ga aylangan maktab va madrasa borasidagi qarashlarini tamomila o‘zgartirib yubordi. Adib Xolidning ta’kidlashicha, Behbudiy ayni shu sayohat davomida Usmoniyalar davlati hamda Misrda xalq ta’limi sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar va yangiliklarni kuzatish barobarida ijtimoiy sohadagi islohotlarda yetakchilik qilgan shaxslar bilan ham muloqot qilish imkoniga ega bo‘lgan. Oradan 8 oy vaqt o‘tib, u Samarqandga qaytishi bilan “Tarjumon” gazetasiga obuna bo‘ldi⁷.

U ham jadidchilik harakati tamal toshi bo‘lgan maktab qattiq kirishdi. Uning tashabbusi va g‘ayrati bilan 1903-yilda Samarqand atrofidagi Halvoysi, Rajabamin qishloqlarida yangi maktablar tashkil qilindi. Adib ushbu maktablar uchun darsliklar tuzishga kirishadi. Ketma-ket uning “Risolayi asbobi savod” (1904), “Risolayi jug‘rofiyayi umroniy” (1905), “Risolayi jug‘rofiyayi Rusiy” (1905), “Kitobatul atfal” (1908), “Amaliyoti islom” (1908), “Tarixi islom” (1909) kabi kitoblari paydo bo‘ladi⁸.

Behbudiy Samarqand shahrida 1913-yili “Samarqand” nomli gazeta va “Oyna” jurnalini nashr ettira boshlaydi. Ularda millat ahvoli, haq-huquqi, milliy til qadri, chet tillarini o‘rganish va tarix masalalariga doir maqolalar e’lon qildi. Bu orqali esa xalqni mavjud ijtimoiy vaziyatdan boxabar etib turishni niyat qiladi⁹.

U 1903-1904-yillarda Moskva va Peterburg shaharlarida bo‘ldi. 1906-yilda esa Qozon, Ufa, Nijniy Novgorod, Misr va Turkiyaga safar qilish asnosida o‘z

⁷ Nusrat Rahmat. Besh yulduzday serqirra inson, Zarafshon gazetasi. –, 2020-yil 6-iyun, 63-son.

⁸ Ma’naviyat yulduzlari. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1999.

⁹ Naim Karimov. Mahmudxo‘ja Behbudiy. – Toshkent, 2010.]

Modern education and development

tajribasini oshirib, mazkur shaharlardagi ijtimoiy hayotni yaqindan o‘rgandi. Ular erishgan yutuqlar va unga erishish yo‘llarini tahlil qildi. Ularning asosini ta’limga, xalq maorifiga berilgan ahamiyatda ekanligini tushungan Behbudiy o‘z zamonasi yoshlariga murojaat tariqasida quyidagi so‘zlarni aytgan edi: “Barchamizga oftob kabi Ravshan va ayondirki, makotib (maktablar) taraqqiyining boshlang‘ichi, madaniyat va saodatning darvozasidir. Har millat eng avval makotibi ibtidoiysini zamoncha isloh etib ko‘paytirmaguncha taraqqiy yo‘lig‘a kirib madaniyatdan foydalanmas”¹⁰.

Mahmudxo‘ja Behbudiy 1911-yilda milliy adabiyotimiz tarixidagi birinchi drama- “Padarkush” ni yozib Turkistonda yangi san’at turiga tamal toshini qo‘ydi. Teatr sohasida jadidchilar tomonidan sahnalashtirilgan ilk drama ham aynan “Padarkush” edi. Muallif asar sarlavhasidan keyin qavs ichida uning janri va mavzusini “Turkiston maishatidan olingan ibratnoma” deb belgilagan. Shuningdek, asarni kitobxonga “3 parda 4 manzarali milliy birinchi fofija” sifatida taqdim etgan. Asarda Boy (50 yashar) va uning o‘g‘li Toshmurod (15-17 yashar) dan tashqari, Domulla (yangi fikrlik bir mulla, 30-40 yashar), Ziyoli (Ovrupo libosida, o‘ruscha o‘qig‘on, millatchi musulmon) va boshqa personajlar harakat etadilar¹¹.

“Padarkush”ning matbuot va sahna yuzini ko‘rishi og‘ir kechdi. O‘sha yillarda tashkil etilgan har bir gazeta chor hukumatining maxsus ruxsati berilgandan keyingina dunyo yuzini ko‘rganidek, bu asarning ham risola shaklida chop etilishi va sahnalashtirilishi uchun chor ma’murlaridan ruxsatnomalar olish zarur edi. O‘zbek teatri tarixiga oid manbalarda ayttilishicha, drama garchand 1911-yilda yozilgan bo‘lsa-da, dramaturg asar ustida kimlarningdir fikrmulohazalari asosida ishlab, uni 1912-yilning avgust oyida nashrga tayyorlagan. Asarning nashr etilishi oson ko‘chsin uchun uni “Borodino jangi va Rusyaning fransuzlar bosqinidan xalos bo‘lishining yubileyi”ga bag‘ishlagan¹².

¹⁰ Nusrat Rahmat. Besh yulduzday serqirra inson, Zarafshon gazetasi. –, 2020-yil 6-iyun, 63-son.

¹¹ Ra’no To‘raxo‘jayeva. Adibi avval, Zarafshon gazetasi. – Toshkent, 2020-yil 27-fevral, 26-son.

¹² Nusrat Rahmat. Behbudiy qoldirgan ma’naviy xazina. 112 Zarnews.uz/ 2020-yil 24-yanvar.

Bugungi tomoshabin va kitobxon uchun birinchi o‘zbek dramasi ibtidoiy asar bo‘lib tuyulishi mumkin. Lekin hali Behbudiy” maqolasidan zamonaviy teatr san’atidan yaxshi xabardor bo‘lmagan tomoshabinlar uchun “Padarkush”ning 1914-yildagi namoyishlari afsonavor voqeа edi. O‘zbek madaniyati tarixida yangi san’at – teatr san’ati tug‘ilgan edi. Behbudiy va uning safdoshlari matbuot orqali bu yangi san’atni keng targ‘ib qilishga kirishdilar. Behbudiy teatrga bag‘ishlangan qator maqolalar yozib, bu san’atning ahamiyatini bunday tushuntirdi:

“Teyotr nimadur? Janobig‘a teyotr ibratnamodur, teyotr va’zxonadur, teyotr ta’zir adabidir. Teyotr oyinadurki, umumiy hollarni anda mujassam va namoyon suratda ko‘zliklar ko‘rub, kar quloqsizlar eshitib asarlanur. Xulosa: teyotr va’z va tanbih etuvchi hamda zararlik odат, urf va taomilni, qabih va zararini ayon ko‘rsatguvchidur. Hech kimni rioya qilmasdan to‘g‘ri so‘ylaguvchi va ochiq haqiqatni bildirguvchidir”¹³.

Atoqli adabiyotshunos olim, iste’dodli o‘zbek yozuvchisi Laziz Azizzoda so‘zi bilan aytganda, agar O‘zbekistonda Navoiy va Ulug‘bekdan boshqa uchinchi bir kishiga haykal qo‘yiladigan bo‘lsa, shubhasiz, bu Behbudiyning haykali bo‘lgusidir. Zero uning xalqimiz ijtimoiy-ma’naviy hayotini isloh qilishda amalga oshirgan ishlari cheksiz e’tirofga loyiqidir. “Behbudiy haqiqat axtarmadi, odamlarni mavhum haqiqatni topish uchun undamadi. U bor haq va haqiqatni xalqqa matbuot, adabiyot va san’at orqali ko‘rsatdi”, - deydi mashhur adabiyotshunos Sirojiddin Ahmedov¹⁴. Biz yoshlarning bo‘ynida jadid bobolarimizdan qolgan ma’naviy merosni nafaqat asrab-avaylash, balki kelajak avlod vakillariga yetkazish vazifasi ham bordir.

¹³ Behbudiy M. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Akademnashr, 2018, B. 40-42.

¹⁴ Alloma Behbudiy hayot yo‘li aks etgan film /https://uz.uз/оз/posts/alloma-behbudiy-hayot-yoli-aks-etgan-film_304394/

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alloma Behbudiy hayot yo‘li aks etgan film /https://uza.uz/oz/posts/alloma-behbudiy-hayot-yoli-aks-etgan-film_304394/
2. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Akademnashr, 2018, B. 40-42.
3. Ma’naviyat yulduzlari. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1999.
4. Naim Karimov. Mahmudxo‘ja Behbudiy. – Toshkent, 2010.
5. Nusrat Rahmat. Behbudiy qoldirgan ma’naviy xazina. /Zarnews.uz/ 2020-yil 24-yanvar.
6. Nusrat Rahmat. Besh yulduzday serqirra inson, Zarafshon gazetasi. –, 2020-yil 6-iyun, 63-son.
7. Ra’no To‘raxo‘jayeva. Adibi avval, Zarafshon gazetasi. – Toshkent, 2020-yil 27-fevral, 26-son.
8. Yoshlar ishlari agentligi. Mahmudxo‘ja Behbudiy. -Toshkent: Yoshlar nashriyoti uyi, 2022.